

## DIZARTIRIYA NUTQ KAMCHILIGINING KELIB CHIQISH SABABLARI

*Iminjonova Moxichexra Alimardon qizi<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada dizartiriya nutq kamchiligining kelib, chiqish sabablari keng miqiyosda yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Dizartiriya, bolalar serebral falaji, asfeksiya

**Dizartiriya** nutq kamchiligi og'ir nutq nuqsonlari safiga kiradi. Dizartiriya – yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "dis – bo'lak", "arthon – biriktirish" degan ma'noni bildirib, nutq apparati innervasiyasining kamchiligi bilan bog'liq bo'lgan talafuzning buzilishidir. Shuningdek, nutq bo'laklariga tovush, bo'g'in, so'z va gap kiradi. Nutqning eng kichik birligi bu – tovushdir. Tovushlarni biriktirishdagi kamchilik dizartiriya deb ataladi.

Dizartiriya nutq kamchiligining kelib chiqish sababi "Bolalar serebral falaji" (DSP) va "ASFEXIYA" hisoblanadi.

Bolalar serebral falaji – perinatal davrda bosh miyyaning turli strukuralarida bo'ladigon o'zgarishlar natijasida kelib, chiqadigon patologiyalar bilan kechadigon umumiyl tushuncha hisoblanadi. Bolalar serebral falajiga uchragan bolalarda aqliy zaiflik, psixologik o'zgarishlar, epilepsiya, eshitish va ko'rish hamda nutqiy taraflama bir qancha o'zgarishlar kuzatiladi. Bosh miya katta yarim sharlarida joylashgan 12 juft nervlar zararlanishi natijasida bolalar serebral falaji kuzatilishi mumkin. Hozirgi kunda 1000 ta chaqaloqning 6-7 tasida, muddatdan ilgari tug'ilgan chaqaloqlarning 40- 50 % ni bolalar sebral falaji (DSP)ga uchragan bolalar tashkil etadi.

### **Homiladorlik vaqtida DSPning rivojlanishiga olib keluvchi omillar**

1. Homiladorlik infeksiyalari (qizilcha, toksoplazmoz, sifilis, gerpes) – ona homiladorlik vaqtida ushbu kasalliklar bilan aziyat chekgan bo'lsa;
2. Homilador ayol somatik kasalliklari (qandli diabet, yurak tug'ma va orttirma nuqsonlari) – ona homiladorlik vaqtida shu kasaliklar bilan kurashsa bu albatta homilaga salbiy ta'sir o'tkazib, bolalar serebral falajini kelib chiqishiga sabab bo'ladi.
3. Homiladorlik paytida ona turli xil travmalar olishi ya'ni ona homidorlik paytida biror tashqi omil orqali yetkazilgan jarotlar natijasida bosh miyaga qon quyilishi yoki ona psixik taaflama biror depressiya holatiga tushib qolishi natijasida DSP rivojlanishi mumkin.

### **Tug'ruq vaqtida DSPning rivojlanishiga sabab bo'lувчи omillar:**

1. Homilaning chanoq bilan kelishi – ya'ni tug'ruq vaqtida bola qisilib qolishi natijasida bolaning bosh qismi siqilishi natijasida ma'lum bir miqdorda bosh miyasiga zarar yetishi kuzatiladi va bu sababni orqasidan bolalar serebral falaji (DSP) kelib chiqadi.
2. Muddatidan oldingi tug'ruq - hammaga ma'lumki muddatdan oldingi tug'ruqda 7 oylik homilada 9 oylik homilaga qaraganda biroz kamchiliklar kuzatilishi mumkin.
3. Kuchli tug'ruq jarayoni deganda bola tug'ruq yo'lida uzoq vaqt qolib ketilgan holatlar nazarda tutiladi. Bola tug'ruq yo'lida uzoq qolib ketishi natijasida, bolaning miyasiga organic jarohat yetishi orqali bosh miyya katta yarim sharlarid joylashgan 12 juft nervlarga shikast yetishii mumkin.

### **Tug'ruqdan keyingi vaqtida DSPning rivojlanishiga sabab bo'lувчи omillar;**

1. Chaqaloqlar asfeksiyasi- ya'ni bola tug'ilgandan so'ng ko'karib ketishi.

<sup>1</sup> ADPI, Maktabgacha ta'lim fakulteti Logopediya yo'nalishi 1-kurs talabasi



**Impact Factor: 9.9****ISSN-L: 2544-980X**

2. O'pkadagi tug'ma nuqsonlar- bola o'pka kasalliklari bilan tug'ilgan bo'lsa (emfizem, surunkali bronxit).

3. Ona va bolaning qoni bir-biriga to'g'ri kelmasligi natijasida bosh miyyaning toksik zararlanishi.

Bolalar serebral falajining belgilari;

Bolalar serebral falaji turli xil ko'rinishda va turli xil og'irlilik darajalarida kechadi. Ba'zi hollarda bolalar serebral falajiga uchragan bolalarda ham dizartiriya nutq kamchiligi kuzatilmasligi mumkin. Bu halat DSP bolalarning 20 % inigina tashkil etadi. Ya'ni DSPsi bor bolalarni 80 % da dizartiriya nutq kamchiligi kuzatiladi.

**Asfeksiya** – bu bola tug'ilayotganda yuzaga keluvchi patologik holat ya'ni kislorod yetishmasligi natijasida kelib chiqadigon asfeksiya, ya'ni bo'g'ilish nafas olishning buzilishi bilan namoyon bo'ladi. Asfeksiyani kelib chiqishiga sabab bo'lувчи omillar 2 davrga ajratiladi. Tug'ruqgacha bo'lgan davr hamda tug'ruq davri.

**Tug'ruqgacha bo'lgan davr**

- Kechki toksikoz;
- Gipertoniya (qon bosimi osishi);
- 35 yoshdan keying homiladorlik;
- Anemiya (kam qonlik);

**Tug'ruq davri**

- Yo'ldoshni erta kelishi yoki erta joyidan ko'chishi;
- Qog'onoq suvsizlanishi davrining cho'zilishi;
- Tug'ruq yo'lida bola uzoq qolib ketishi;
- Kindik tizimchasiga o'ralashishi;
- Tinchlantiruvchi va og'riq qoldiruvchi dori vositalarini tug'ruqdan 1-2 soat iste'mol qilinishi.

Bundan tashqari, vaqtidan oldin yoki muddati o'tib tug'ilishda, ona qornida rivojlanishidan orqada qolishda, homilalaik davrida tug'ma nuqsonlar va yurak ritmi buzilishining kuzatilishi shuningdek harakat faolligi sustlashishi ham boladagi asfeksiyani kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Dizartiriya nutq kamchiligin keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar bolalar serebral falaji va asfeksiya hisoblanadi. Ushbu sabablar kelib chiqmasligi uchun onani homiladorllika tayyorlov davridan boshlab muntazam nazoratda bo'lishi kerak. Bolalar serebral falaji tufayli nafaqat dizartiriya nutq kamchiligi balki boshqa turdag'i rivojlanishdan orqada qolish holatlari ham kuzatiladi. Shu boisdan bolalar serebral falaji va asfeksiya holatlari kelib chiqmaslik uchun ona homidaorlik davrida muntazam ravishda shifokor nazoratida bo'lmog'i lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. M. Ayupova. Logopediya. Toshkent. 2007.
2. L.Mo'minova, M.Ayupova. Bolalarda dizartiriya nutq kamchilagini bartaraf etish texnologiyasi. Toshkent. 2017.
3. Wikipediya.
4. Маджидова, Р. У., Мухитдинова, Х. С., & Оманов, П. Х. РОЛЬ ЛИНГВОСТРАНОВЕДЧЕСКИХ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ В ПРЕПОДАВАНИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО. “ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”7-ҚИСМ, 149.
5. Маджидова, Р. У. (2019). Антропоцентризм и аксиологическая картина мира. Наука, техника и образование, (6 (59)), 67-71.



**Impact Factor: 9.9**

**ISSN-L: 2544-980X**

6. Majidova, R. U. (2023). LANGUAGE AS A COMMUNICATION TOOL: UNDERSTANDING ITS FUNCTIONS AND IMPLICATIONS. " GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
7. Маджидова, Р. (2018). РЕЧЕВОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА В СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ТРАКТОВКАХ. Farg'ona davlat universiteti, (1), 20-20.
8. Urishevna, M. R. (2019). Representation of the linguistic world picture through a human factor. RELIGACIÓN. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades, 4(15), 234-240.
9. Mamatov, G. B. R. (2024). IMPLEMENTATION OF THE EDUCATION SYSTEM OF EUROPEAN COUNTRIES. Innovations in Technology and Science Education, 3(19), 135-139.
10. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS. Science and innovation, 3(Special Issue 19), 352-354.
11. Mukhammadalievna, B. G. (2023). THEORETICAL VIEWS ON PROVERB IN GERMAN AND UZBEK. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(4).
12. Rasulova, A. M., & Xusanova, M. (2022). 'Rifat Axmadjonovna POETIK NUTQDA SINONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI.
13. Ahmadjonovna, K. M. (2024, February). XORIJY TILNI OSON VA QIZIQARLI O 'RGANISH TO 'G 'RISIDA. In Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium) (Vol. 4, pp. 20-23).
14. Xusanova, M. (2023). SOMATIK KODLAR TADQIQIGA DOIR. Farg'ona davlat universiteti, (1), 163-163.
15. Rasulova, A. (2023). FARIDA AFRO 'Z SHE'RIY ASARLARIDA OMONIMLARNING ROLI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(9), 116-120.

